

## **O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

**Mirzayev Sardor Amrullayevich,  
Choriyeva Mehribon Baxtiyorovna,**

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o‘qituvchilari

### **ANNOTATSIYA**

*Yangi O‘zbekiston islohotlarining bosh maqsadi – ta’lim tizimida kreativ fikrlaydigan pedagoglarni innovasion ta’lim texnologiyalari asosida faoliyat yurtishdan iborat ekan, bu jarayonlarni o‘rganib tahlil qilish, xulosa chiqarish lozim. Maqolada ta’limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari xususida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Taraqqiyot, ta’lim, bosqich, isohot, pedagog, yosh-avlod*

## **EMERGENCY EDUCATION AND DEVELOPMENT STAGES IN UZBEKISTAN**

**Mirzaev Sardor Amrullaevich,  
Chorieva Mehribon Bakhtiyorovna,**

Teachers of the Pedagogical Institute of Karshi State University

### **ABSTRACT**

*The main goal of the reforms in the new Uzbekistan is to educate creative thinking teachers in the education system on the basis of innovative educational technologies, and it is necessary to study and analyze these processes and draw conclusions. The article discusses the emergence and stages of development of education.*

**Keywords:** *Development, education, stage, explanation, educator, young generation*

## **СРОЧНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Мирзаев Сардор Амруллаевич,  
Чориева Мехрибон Бахтиеровна,**

Преподаватели педагогического института Каршинского государственного университета.

## **АННОТАЦИЯ**

*Основная цель реформ в новом Узбекистане - воспитание творчески мыслящих учителей в системе образования на основе инновационных образовательных технологий, и необходимо изучить и проанализировать эти процессы и сделать выводы. В статье рассматриваются возникновение и этапы развития образования.*

***Ключевые слова:** развитие, образование, этап, объяснение, воспитатель, молодое поколение.*

## **KIRISH**

Ta'limda islohotlar ro'y berayotgani xususida gap ketganda, bolaligimiz yodimizga tushadi. Eng yaxshi fanlarimiz mavzusini endi doskaga yozib ulgurmay metallom yig'ishga chiqarib yuborishar, sentyabr oyini yangi o'quv yilining boshlanishi deb xursand bo'lib emas, yana o'sha paxta "kalonnalari" kelishidan xadiksirar, yangi olgan formalarimiz uyda qolib, etak, kovush ko'targancha paxtazorga ergashar edik. Qish yaqinlashishiga qaramay oxirgi ko'sak qolguncha yerga egilar, uydan yiroqda begona qishloqlarda sovuqdan kusaklardan gulxan qilib isinar edik. Eng yomoni paxtadan yo "o'ta og'ir bemor bo'lish" yoki "mullajiring"ni berish bilan qutilish lozim edi. Bunda albatta, har bitta o'qituvchidan kamida bitta oylik maoshi ushlab qolinadi. O'qituvchi paxtaga bormasayam pulini berishi kerak edi. Hattoki, ming kilovattlab gazga yoki elektr enirgiya shaharsozlik uchun yig'im, yetmaganday metallomga ham o'qituvchidan undirilardi. Metallom to'plash



majmuriyati o'qituvchi qatori o'quvchiga ham yuklatilar edi(kechasi nishonsiz yo'qolgan kaladuslarni aytmaysizmi?). Ko'cha supurishga jalb qilingan o'qituvchining obro'-e'tibori tushgani ham bor gap. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi

tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor

yig'ilishida ham yuqoridagi holatlar muhokama qilingani esa ta'lim tizimida katta burilish yasadi. O'ylab qaralsa, prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ilk bor bu tashabbusni o'rtaga tashlagani, Adliya hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «Pedagog xodimning maqomi to'g'risida»gi qonun loyihasi mamlakatimizda katta burilish yasadi. Biror kishi yurak yutib takliflar berish u yoqda tursin bu haqda gapira olmagan, tariximizda rahbarlar hech qachon bunday yig'ilish o'tkazilmagan.

Darhaqiqat, maktab masalasi - bu kelajak masalasi, hayot-mamot masalasi ekan, «Pedagog xodimning maqomi to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokamaga qo'yilgani



undagi pedagog xodimlar besh yil oldin imtiyozli pensiyaga chiqishi mumkin etib belgilanishi, quvonarlisi ularga 15 foizdan 40 foizgacha ko'p yillik xizmatlari uchun ustamalar to'lash, qolaversa, o'qituvchilarni yuqumli kasalliklarga qarshi bepul emlash belgilanishi mumkinligi pedagoglarga

katta qanot bo'ldi. Bugungi islohotlarning bosh maqsadi esa yangi davr o'qituvchilarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovasion ta'lim texnologiyalari, kreativ yondashuvdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

O'ylab qaralsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan "Milliy o'quv dasturi" majoziy ma'noda egizak tushincha, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni o'tgan asr ta'lim tizimining poydevori bo'lsa "Milliy o'quv dasturi" uning kelajagidir.

So'zimiz avvalida, «Pedagog xodimning maqomi to'g'risida»gi qonun loyihasining yana bir qiziq tomoniga to'xtalsak, loyihaga muvofiq, pedagog xodimni lavozim majburiyati va kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish taqiqlanadi hamda uni majburiy mehnatga jalb qilgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Pedagoglarning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish masalasida hamda mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilganida davlat bojini to'lashdan ozod etilishi, hamma kutgan loyiha bo'lishi aniq. Shuningdek, qonun loyihasi qabul qilinsa, davlat ta'lim tashkiloti pedagog xodimining bazaviy lavozim maoshi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan [2 230 000 so'm – tahr.] kam bo'lishi mumkin emasligi belgilanishi, Malaka toifasiga ega pedagog xodimlarga quyidagicha bazaviy lavozim maoshi miqdorlarida har oylik ustama to'lanadi:

ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi) uchun – kamida 20 foizi;

birinchi malaka toifasi (yetakchi o'qituvchi lavozimi) uchun – kamida 30 foizi;

oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi) uchun – kamida 50 foizi.

Xodimga 56 ish kunidan iborat yillik haq to'lanadigan uzaytirilgan ta'til, shuningdek, ta'til berilganida, kalendar yilida bir marta bazaviy lavozim maoshi miqdorida sog'lig'ini tiklash uchun moddiy yordam berilishi mumkin. Bundan tashqari, pedagoglarning pensiya yoshi besh yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olishi belgilanishi mumkinligi quvonarli albatta.

Loyihada shuningdek, yel tili va fanlarni bilish bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga ega shu bo'yicha ta'lim beruvchi pedagoglarga, bazaviy lavozim maoshining [BLM] 50 foizi miqdorida har oylik ustamalar to'lanishi esa uning intellektual bilim boyligi oshishiga turtki bo'ladi.

## **MULOHAZA VA TAKLIFLAR**

Avval ta'kidlaganimizdek, ta'lim sohasi uchun prezidentimiz boshchiligida o'tkazilgan videoselektorda davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlagandi. Darhaqiqat, so'z isboti bilan bu borada ta'lim vazirligi tizimida namunali islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O'qituvchilar toifasini belgilash tartibini ham tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda, bundan tashqari, endi maktab direktorlarini lavozimga tayinlash bevosita mahalliy kengashlar bilan kelishilgan holda, tanlov asosida amalga oshiriladi. Har bir nomzod maktabning ko'rsatkichlarini kelgusi 3 yilda yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha o'z dasturi bilan tanlovda ishtirok etishi ta'minlanmoqda. Bunday say'-harakatlar o'z natijasini bermoqda. Xususan, birgina yaqin ikki yil ichida **10 ta prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika va ATga ixtisoslashgan maktab ochildi.**

Endigi navbat esa bolaning tahlilii va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirishga mo‘ljallangan yangi darsliklar tayyorlash boshlandi. Boshlang‘ich sinflarda DTS o‘rniga bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o‘quv dasturi” joriy etilishi yanada yangi islohotlarning yangicha debochasi.

## **XULOSA**

Ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan so‘zlarini bot-bot takrorlaymiz. Bu imoratning poydevorini qurish hamma zamonda ham murakkab va mas‘uliyatli. Hukumatimiz darajasiga ko‘tarilgan ta‘lim tizimining bugungi kunda ham reytingi ko‘tarilayotgani, yangicha tizim, xalq kutgan qarorlarning imzolanishi barchamizni shu ishga boshqosh bo‘lishimizga turtki bo‘ladi. Ayniqsa, imzolanayotgan qarorlar kitoblar qatida emasb amalda qo‘llanilayotganidan xalq rozi. Pedagoglar rozi. Xususan, qog‘ozbozlik o‘rniga elektron dasturlar asosida pedagogik yuklamalarni bajarish biz o‘qituvchilarning vaqti tejalanib, o‘quvchilarga sifatli ta‘lim berishimizda asos bo‘lmoqda. Xususan, yuritishimiz lozim bo‘lgan hujjatlarning to‘liq ro‘yxati, sinf jurnali, yillik taqvim-mavzui rejasi, kundalik dars ishlanmalaridagina iborat ekanligi ta‘limda sifatni oshirdi. Eng qizig‘i hududiy xalq ta‘limi boshqarmalari va tuman(shahar) bo‘limi mudirlariga hokimning ta‘lim va tarbiya bo‘yicha maslahatchisi maqomi berilgani va unga yuklatilgan yo‘l xaritasi xalq manfaati, pedagog manfaatiga qaratilgani ta‘limdagi islohotlarning yanada yangi bosqichga ko‘tarilganidan nishonadir. Zero,

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday yekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

## **REFERENCES**

1. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш Т.: “Турон-Иқбол”, 2006. 590 б.
2. Халқ таълими журнали бош мақола “Инновация – янгиликка интилиш, келажакка қадам”, Т.: 2018. № 1.4-6 б.
3. Йўлдошев Ж.Ф.“Инновацияларни таълим жараёнига узлуксиз равишда татбиқ этиш замон талаби” Т.: “Узлуксиз таълим” ж. 2011. № 6, 11-15 б.

4. Мусурмонов Р. “Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар” Multidisciplinary Peer Reviewed
5. Journal hamkorligidagi Xalqaro onlayn konferensiya. 2020-йил 18-19 июнь, Самарқанд.
6. Rasulov, R. (2021). COUNTERAGENT VALENCE OF STATE VERBS (ON THE MATERIAL OF THE UZBEK LANGUAGE). Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 673-680.
7. Хайитов, О. Э. (2020). Моделирование психологической компетентности руководителя: концептуальный эмпирический анализ.
8. <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>